**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ISLOMIDDINOV ZOIRJON SHORIFJON O‘G‘LI**

# ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘I MAKROMITSETLARI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**UO‘K 581.5.9:581.55:582**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Islomiddinov Zoirjon Shorifjon o‘g‘li**
Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlari.....3

**Исломиддинов Зоиржон Шорифжон угли**
Макромицеты Заминского национального природного парка….....21

**Islomiddinov Zoirjon Shorifjon ogli**
Macrofungi of the Zaamin National Nature Park ……41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works ……..……44

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ISLOMIDDINOV ZOIRJON SHORIFJON O‘G‘LI**

# ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘I MAKROMITSETLARI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1240 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (résumé)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Mustafaev Ilyor Murodullaevich**<br>biologiya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Turginov Orzimat Turdimatovich**<br>biologiya fanlari doktori |
| | **Xasanov Botir Achilovich**<br>biologiya fanlari doktori |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 13-mart kuni soat $14^{00}$ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (84-raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 23-fevral kuni tarqatiladi.
(2026-yil 23-fevraldagi 23-raqamli reestr bayonnomasi).




**K.Sh. Tojibayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., akademik

**A.V. Maxmudov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD.,
katta ilmiy xodim

**X.F. Shomurodov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ekotizimlarning shakllanish jarayonini chuqur o‘rganishda muayyan hududdagi biologik turlarni taksonomik jihatdan aniqlash va ularning areallarini aniqlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda organizmlarni identifikatsiyalash hamda ularni sistematik jihatdan o‘rganish zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, uning hududining taxminan 80 foizini yarimcho‘l va cho‘l zonalari, qolgan qismini esa janubiy-sharqiy hamda sharqiy hududlardagi baland tog‘ tizmalari tashkil etadi. Ushbu geomorfologik va iqlimiy sharoitlar tufayli mintaqadagi makromitsetlar xilma-xilligi boshqa hududlarga nisbatan yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, hozirgi kunda O‘zbekiston mikobiotasi bilan bog‘liq bir qator dolzarb ilmiy savollar hanuz ochiq qolmoqda. Ayniqsa, respublika hududi bo‘yicha makromitset turlarining noaniq soni va taksonomik tarkibi, respublikamiz hududida dorivor, endemik hamda noyob makromitset turlarining mavjudligi va ularga nisbatan ilmiy ma’lumotlarning yetishmasligi biologik xilma-xillik saqlash nuqtai nazaridan muhim masaladir. Shuningdek, iste’molga yaroqli zamburug‘larni sun’iy sharoitda yetishtirishning zaruriyati va amaliy mexanizmlarini izlash ekologik va iqtisodiy jihatdan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 484-son qarori hamda mazkur strategiyaning 1-, 10-, 14-, 56-, 72-, 74- va 78-bandlarida muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni ma’lum darajada amalga oshirish va O‘zbekiston mikobiotasini tadqiq etishda yuqorida keltirilgan ilmiy ehtiyojlar, mavjud bo‘shliqlardan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Jizzax viloyati, Zomin tumani hududida joylashgan Zomin milliy tabiat bog‘idagi makromitsetlar xilma-xilligini aniqlash, ularni trofik tuzilmasini tadqiq etish, mavsumiy rivojlanishini o‘rganish va makromitsetlar biotasining o`ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy holatni ochib berishdan iborat. Bunda Zomin milliy tabiat bog‘ida tarqalgan makromitsetlar biotasini identifikatsiyalash, ekologik-trofik tuzilmasini asoslash va elektron ma’lumotlar bazasini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va

atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hududlar kesimida makromitsetlarning taksonomik tarkibi, ularning xo‘jayin o‘simliklar bilan o‘zaro munosabatlari hamda ekologik xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlar — Knudsen et al. (2012), Коваленко А.Е. (1980, 1989), Коваленко А.Е., Морозова О.В. (1999), Морозова О.В. (2001), Малишева Э.Ф. (2018), Turland et al. (2018) tomonidan keng yoritilgan.

O‘zbekiston miqyosida esa bu yo‘nalishdagi izlanishlar Н.Г. Запрометов (1926–1928), Т.К. Роткевич (1960), Н.И. Гапоненко (1965), Ф.Г. Ахмедова (1966), А.А. Петрова (1989), М. Холикова (1989), Г.М. Балтаева (1991), М.М. Иминова (2009), Mustafayev (2015), G‘afforov (2017, 2020, 2021) va boshqa mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

Tadqiqot hududiga oid dastlabki zamburug’ materiallari 1956-1960 yillarda Т.К. Роткевич tomonidan to‘plangan. Tadqiqotchi tomonidan Zomin davlat qo‘riqxonasida amalga oshirilgan mikologik izlanishlar natijasida 225 tur va 34 forma zamburug‘ aniqlangan bo‘lib, ularning 12 turi makromitsetlarga tegishli ekani qayd etilgan (Роткевич, 1960).

Shuningdek, estoniyalik mikolog Kuulo Kalamees tomonidan Zomin milliy tabiat bog‘ida 1987-1989 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu izlanishlar davomida mazkur hududda ilgari fan uchun noma’lum bo‘lgan 13 turdagi qalpoqchali zamburug‘lar aniqlangan (Kalamees, 1987; 1989).

O‘zbekiston hududida makromitsetlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ichida А.А. Петрова tomonidan olib borilgan ishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Zomin davlat qo‘riqxonasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida 216 turdagi bazidial makrozamburug‘lar qayd etilgan bo‘lib, ularning 173 turi O‘zbekiston mikobiotasi, 90 turi esa Markaziy Osiyo hududi uchun ilk bor keltirilgan (Петрова, 1989). Keyingi bosqichdagi tadqiqotlar 2018–2021-yillar davomida tadqiqotchi G‘afforov Y.Sh. tomonidan amalga oshirilgan (Gafforov et al. 2021). Ushbu davrda Respublikamizning turli hududlaridan ilm-fan uchun yangi bo‘lgan bir qator makromitset turlari aniqlangan.

Biroq hududning o‘ziga xos iqlim sharoiti, murakkab orografik joylashuvi va boy o‘simlik qoplami mavjudligini inobatga olgan holda, yuqorida qayd etilgan mikologik izlanishlar Zomin milliy tabiat bog‘ida uchraydigan makromitsetlar xilma-xilligini to‘laqonli aks ettira olmaydi.

Shu bois, Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarini tur tarkibini aniqlash, ekologik-trofik tuzilmasi, zamburug`larning mavsumiy rivojlanish dinamikasi va tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishini asoslash, xo‘jalik ahamiyatiga ega o‘simliklarga potensial zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan zamburug‘ turlarini aniqlash hamda ularning tarqalish ma’lumotlari va bioiqlimiy xossalari asosida potentsial tarqalish areallarini turli vaqt kesimida modellashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining Respublika nikobiotasining

milliy axborot-tahliliy ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish va yuritish, noyob, dorivor va istemolbop makromitsetlarning kamyob va yo‘qolish xavfi ostida bo‘lgan turlari bo‘yicha davlat kadastri hamda zamburug‘lar dunyosi monitoringini yuritish ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:**

Zomin milliy tabiat bog‘ida tarqalgan makromitsetlar biotasini identifikatsiyalash, ekologik-trofik tuzilmasini asoslash hamda keng ko‘lamli tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Zomin milliy tabiat bog‘ida tarqalgan makromitsetlar tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;
- aniqlangan makromitsetlar biotasini ekologik-trofik tuzilmalarini asoslash;
- Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlar biotasini qiyosiy tahlil qilish;
- xavfli patogen zamburug‘ turlari potensial tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish;
- makromitset turlarini tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini tuzish;

**Tadqiqotning obyekti:** Zomin milliy tabiat bog‘ida tarqalgan makromitset turlari.

**Tadqiqotning predmeti** Zomin milliy tabiat bog‘idan yig‘ilgan fungariy namunalari, makromitsetlarning taksonomiyasi, mavsumiy rivojlanishi va tik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda mikologik, fitopatologik, bioinformatik, marshrutli dala tadqiqotlar usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarning 2 bo‘lim, 5 sinf, 11 tartib, 43 oila va 79 turkumiga mansub 153 tur aniqlangan;
- O‘zbekiston mikobiotasi uchun ilk bor 14 makromitset turlari qayd etilgan;
- makromitsetlarning ekologik-trofik tuzilmalari ilmiy asoslangan;
- makromitsetlarning tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishi hamda mavsumiy rivojlanishi ochib berilgan;
- ilk bor tadqiqot hududidagi *Lonicera* turkumida patogenlik qiluvchi *Sanghuangporus lonicerinus* ning potensial tarqalishi bioiqlimiy modeli ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O’zbekistonning Zomin milliy tabiat bog‘i hududidan qayd etilgan 153 turdan iborat makromitsetlarning 686 ta yangi geobog'langan axborot fondi yaratilib, bilogik xilma-xillikka oid xalqaro raqamli platformalarga integratsiya qilindi.

Tadqiqot hududida aniqlangan 153 turga mansub makromitsetlarning hududiy taqsimotini vizual ko‘rsatish, ularni monitoring va ekologik baholashda amaliy foydalanish maqsadida GAT (Geografik Axborot Tizimi) asosida xaritalar tuzilgan.

Tadqiqot hududidagi *Lonicera* larda patogenlik qiluvchi *Sanghuangporus lonicerinus* ning hozirgi geografik tarqalishi va kelajakdagi diapazonini O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining ko‘plab ssenariylari ostida modellashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi**. Laboratoriya va dala tadqiqotlarida

zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarining mahalliy va yetakchi xorijiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalar sohaga oid davlat organlari tomonidan tasdiqdan o‘tkazilganligi, fungariy namunalari Botanika instituti Mikologiya va algologiya laboratoriyasining (TASM) fondida saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarning taksonomik tarkibi aniqlanganligi, O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi makromitset turlarining qayd etilganligi, makromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi, balandlik mintaqalari bo‘yicha, xo‘jayin o‘simlik taksonlari kesimida tarqalishi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati o‘rmon xo‘jaliklari, milliy tabiat bog‘lari va qo‘riqxona hududlari yuksak o‘simliklarida patogen makromitsetlar keltirib chiqaradigan kasalliklarni aniqlash, Oliy ta’lim va kasb-hunar maktabi talabalari uchun “O‘rmon fitopatologiyasi”, “Manzarali o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish” kabi darsliklarni tayyorlashda, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda tarqalgan iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklarning zamburug‘li kasalliklarini tezkor aniqlashga xizmat qilishdan iborat.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Zomin milliy tabiat bog‘ida olib borilgan mikologik tadqiqotlardan olingan natijalar asosida:

Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarining 686 ga yaqin mikologik gerbariy namunalari O‘zR FA Botanika instituti “Noyob obyekti” Mikologik gerbariy (TASM) fondiga topshirilgan. Natijada, Zomin milliy tabiat bog‘idan yig‘ilgan fungariy namunalari noyob obyekt fondini boyitish imkonini bergan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasning 2025-yil 29 yanvardagi №4/1255-256-son ma’lumotnomasi).

Bundan tashqari, yig‘ilgan fungariy namunalari xalqaro ma’lumotlar tizimiga, ya’ni Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlar global (GBIF) bazasiga kiritilgan (2024 yil 23 dekabrdagi №022 guvohnoma). Natijada, Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarini xalqaro miqyosda kuzatish va monitoring qilish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida jami 8 ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan, 2 ta Respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 100 betdan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari to‘liq tavsiflangan, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiliklari ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi – “**O‘zbekistonda olib borilgan mikologik tadqiqotlar tahlili, tadqiqot hududi, obyekti va metodlari**”da mamlakatda makromitsetlar bo‘yicha bajarilgan ilmiy izlanishlarning tahlili keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotning obyekti va qo‘llanilgan metodlari bayon qilingan hamda Zomin milliy tabiat bog‘ining fizik-geografik tavsifi yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi – “**Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlar biotasining taksonomik va qiyosiy tahlili**” tadqiqot hududida aniqlangan makromitsetlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, u olti bo‘limdan iborat.

Bobning birinchi bo‘limida milliy bog‘ hududida qayd etilgan barcha makromitset turlari ularning topilgan joylari, aniqlangan vaqtlari va ho‘jayin o‘simliklari bilan birgalikda yoritilgan.

Ikkinchi bo‘limda esa Zomin milliy tabiat bog‘i hududida aniqlangan makromitsetlarning taksonomik tahlili berilgan bo‘lib, natijada 2 bo‘lim, 5 sinf, 11 tartib, 43 oila, 79 turkumga mansub jami 153 tur aniqlangani qayd etilgan (1-jadval).

**1-jadval**

Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarining taksonomik tarkibi

| Bo‘lim | Taksonlar soni | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sinf | tartib | oila | turkum | tur |
| Ascomycota | 3 | 3 | 6 | 6 | 9 |
| Basidiomycota | 2 | 8 | 37 | 73 | 144 |
| Jami: | 5 | 11 | 43 | 79 | 153 |

Zomin milliy tabiat bog‘ida aniqlangan 153 ta makromitset turining taksonomik tasnifiga ko‘ra, ularning asosiy qismi — 144 turi (94,1 %) — Basidiomycota bo‘limiga mansubdir. Ascomycota bo‘limidan 9 ta tur (5,9 %) aniqlangan.

Aniqlangan makromitsetlar sinflari tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Agaricomycetes sinfi turlar soni bo‘yicha yaqqol ustunlikka ega (2.2-rasmga qarang). Ushbu sinf tarkibida 7 tartib, 36 ta oila (shu jumladan 1 ta *incertae sedis*), 72 ta turkum va 143 ta tur aniqlanib, ular umumiy aniqlangan makromitsetlarning 93,4 % ini tashkil etdi. Qolgan sinflarning ulushi quyidagicha taqsimlangan: Pezizomycetes — 1 tartib, 4 oila, 4 turkum va 7 tur (4,5 %); Sordariomycetes, Tremellomycetes va Leotiomycetes — 1 tartib, 1 oila, 1 turkum va 1 tadan tur bilan ifodalanib, har biri umumiy tarkibning 0,6 % ini tashkil etdi.

Makromitsetlarning tartiblar bo‘yicha taqsimoti tahliliga ko‘ra, Agaricales tartibi oilalar, turkumlar va turlar soni jihatidan boshqa tartiblarga nisbatan yaqqol

ustunlik qilgani aniqlandi. Tadqiqot hududidan ushbu tartibga mansub 110 ta tur qayd etilgan bo‘lib, bu jami aniqlangan makromitset turlarining 71,9 % ini tashkil etdi. Qolgan tartiblarga mansub turlar quyidagicha taqsimlangan: Polyporales — 17 ta tur; Pezizales — 7 ta tur; Hymenochaetales — 6 ta tur; Geastrales — 5 ta tur; Boletales — 4 ta tur; Helotiales, Gloeophyllales, Russulales, Tremellales, va Xylariales tartiblaridan esa har biridan 1 tadan tur aniqlandi.

Makromitsetlarning oilalar bo‘yicha tahlili natijasida eng ko‘p tur Agaricaceae (17 tur) oilasiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Shuningdek, Psathyrellaceae (15 tur), Bolbitiaceae va Polyporaceae (8 tadan tur), Lycoperdaceae, Hymenogastraceae va Strophariaceae (7 tadan tur) hamda Mycenaceae (6 tur) oilalari qayd etildi. Qolgan oilalar 1–5 tur bilan ifodalanib, 15 tur esa incertae sedis sifatida tasniflandi.


Turkumlar bo‘yicha tahlil natijasida eng ko‘p tur *Agaricus* (8 tur) va *Conocybe* (7 tur) turkumlariga to‘g‘ri kelgani aniqlandi. Shuningdek, *Mycena* (6 tur), *Coprinopsis*, *Geastrum*, *Psathyrella* va *Panaeolus* (har biri 5 turdan), qolgan boshqa turkumlarda esa 1–4 turgacha qayd etilgan.

Zomin milliy tabiat bog‘ida 2019-2024 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan makromitsetlarning taksonomik tarkibi Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning umumiy fungasiga xos xususiyatlarni namoyon etdi. O‘zbekiston iqlimining nisbatan quruq bo‘lishiga qaramay, nafaqat o‘simliklar, balki zamburug‘larning, xususan makromitsetlarning ham yuqori xilma-xilligi mavjudligi ko‘plab oldingi tadqiqotlar (Iminova 2009, А.А. Петрова 1989, М. Холикова 1989) tomonidan tasdiqlangan. Ushbu tadqiqotda olingan ma’lumotlar O‘zbekiston hududidagi makromitsetlar turlarining boyligi va taksonomik xilma-xilligini yana bir bor ilmiy asosda tasdiqladi.

Bobning uchinchi bo‘limida O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi turlar haqida ma’lumotlar yoritilgan. Tadqiqot hududidan to‘plangan namunalarni tahlil qilish hamda mavjud manbalar bilan qiyoslash natijasida makromitsetlarning 16 turi mamlakat hududi uchun ilk bor qayd etildi, jumladan *Agaricus kerriganii*, *Calycina citrina*, *Conocybe qujingensis*, *Cortinarius castaneus*, *Crucibulum laeve Entoloma hirtum*, *Gymnopus pubipes*, *Hebeloma salicicola*, *Mycena abramsii*, *Melanoleuca juliannae*, *Panaeolus olivaceus*, *Phloeomana speirea*, *Poronia punctata*, *Pulverulina praticola*.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlari tur tarkibining o‘ziga xosliklarini aniqlash maqsadida, hudud mikobiotasi Farg‘ona vodiysi hamda Toshkent viloyatining tekislik va tog‘li hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlar biotasi Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyatida qayd etilgan turlar bilan qiyoslandi. Asosiy e’tibor yetakchi oilalar, turkumlar va turlar spektrlariga qaratildi. Natijada, Farg‘ona vodiysi bilan 23 oila, 35 turkum va 38 tur, Toshkent viloyati bilan esa 23 oila, 43 turkum va 46 tur umumiyligi aniqlangan bo‘lib, uch hudud o‘rtasida 16 oila, 22 turkum va 25 tur darajasida o‘xshashlik qayd etildi.




**1-rasm.** Taqqoslanayotgan hududlardagi makromitsetlar biotalarining (tur, turkum, oila).

Hududlar o‘rtasida makromitsetlar tur tarkibining o‘xshashlik darajasi floristik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan Jakkard, Sørensen–Czekanovskiy, Stogran–Radulesku va Kulchinskiy koeffitsientlari asosida baholandi.

**2-jadval.**

Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlari va boshqa hududlar makromitsetlari o‘rtasidagi tur tarkibida o‘xshashlik va farq koeffitsientlari.


| Taqqoslash koeffitsientlari | | Taqqoslanayotgan hududlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Farg‘ona vodiysi (121 tur, 60 turkum, 38 oila) | Angrensoy (57 tur, 49 turkum, 21 oila) | G‘arbiy Tyan-Shan (55 tur, 40 turkum, 18 oila) | Toshkent viloyati (118 tur, 72 turkum, 27 oila) |
| Jakkard | Oilalar | 0.38 | 0.34 | 0.33 | 0.46 |
| | Turkumlar | 0.33 | 0.33 | 0.32 | 0.39 |
| | Turlar | 0.17 | 0.13 | 0.17 | 0.20 |
| Sørensen-Czekanovskiy | Oilalar | 0.55 | 0.51 | 0.50 | 0.63 |
| | Turkumlar | 0.49 | 0.50 | 0.49 | 0.56 |
| | Turlar | 0.27 | 0.23 | 0.29 | 0.33 |
| Kulchinskiy | Oilalar | 0.57 | 0.57 | 0.59 | 0.7 |
| | Turkumlar | 0.52 | 0.52 | 0.54 | 0.59 |
| | Turlar | 0.3 | 0.28 | 0.34 | 0.35 |
| Stogran — Radulesku | Oilalar | 0.19 | 0.32 | 0.33 | 0.02 |
| | Turkumlar | 0.3 | 0.23 | 0.35 | 0.16 |
| | Turlar | 0.66 | 0.74 | 0.65 | 0.57 |

Natijalar Toshkent viloyati bilan eng yuqori, Angrensoy hududi bilan esa eng past o‘xshashlik darajasi kuzatilganini ko‘rsatdi. Bu esa Zomin milliy tabiat bog‘i mikobiotasi Toshkent viloyati mikobiotasiga nisbatan ko‘proq yaqinlikka ega ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Aniqlangan tafovutlar Zomin milliy tabiat bog‘ining joylashuvi va ekologik sharoitlari bilan izohlanadi. Hudud ignabargli-bargli o‘rmonlarning yuqori zonasida joylashgani sababli makromitsetlar tarkibi o‘ziga xos bo‘lib, kosmopolit

turlar nisbatan kam uchradi. Bu holat ekologik sharoitlarning mos emasligi va antropogen omillar ta’siri bilan bog‘liq deb baholandi.

Bobning beshinchi bo‘limida O‘zbekiston mikobiotasidagi endemizm hamda fan uchun aniqlangan yangi makromitsetlarga oid ma’lumotlar keltirilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida mamlakat hududidan jami 20 ta makromitset turi qayd etilgan bo‘lib, shulardan 15 tasi bevosita Zomin milliy tabiat bog‘i va Zomin davlat qo‘riqxonasida aniqlangan. Shuningdek, 1980 yilda Kuulo Kalamees tomonidan Zomin davlat qo‘riqxonasining Tuyasoy qismidan tavsiflangan *Melanoleuca zaaminensis* Kalamees keyingi izlanishlarda uchramagan. Ammo 2022 yilda Qozog‘istonning shimoli-sharqida qayd etilib, molekulyar tahlillar natijasida ushbu tur tasdiqlangan. Bu holat turning geografik areali kengayib borayotganidan dalolat beradi. O‘tkazilgan dala tadqiqotlarida aniqlangan 17 turdan faqatgina *Hyphodontia zhixiangii* qayta topilgan bo‘lib, bu mintaqadagi mikobiota xilma-xilligini chuqurroq o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Endemik turlarni batafsil tadqiq etish tabiiy resurslar va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.





**2-rasm.** Zomin milliy tabiat bog’ining 1000 metrdan 3200 metr oralig’ida tarqalishi.

Bobning oltinchi bo‘limida Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarining balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi yoritilgan. Zomin milliy tabiat bog‘idagi makromitsetlarning balandlik mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi asosan tog‘ va yaylov zonasiga to‘g‘ri keladi. Chunki milliy bog‘ hamda unga chegaradosh hududlarning eng quyi chegarasi 1200 metr bo‘lib, eng yuqori chegarasi 3200 metrni tashkil etadi. Tadqiqotimiz natijasida aniqlangan 156 makromitset turini 1000 metrdan 3200 metrgacha bo‘lgan balandlik oralig‘ida tarqalishiga ko‘ra guruhlab o’rganib chiqildi.

*1200-1400 metr* balandlik oralig’ida 50 ta tur bilan eng ko‘p zaburug‘ turlari qayd etildi. Hudud qisman Usmonlisoy va Yettikechu qishloqlarni o‘z ichiga oladi. Bu hududda yongo‘qzorlar, teraklar, do‘lanalar, namataklar, qarag‘aylar, tollar kam miqdorda *uchqatlar* kabi daraxt va butalar o‘sadi. Ushbu xudud oralig‘ida *Agaricus kerriganii, Hebeloma salicicola, Lepiota erminea, Flammulina velutipes, Poronia punctata, Conocybe qujingensis, Cortinarius kunicensis, Arrhenia spathulata, Cyathus stercoreus, Panaeolus rickenii, Panaeolus foenisecii, Melanoleuca exscissa, Melanoleuca juliannae, Gymnopus pubipes, Volvopluteus gloiocephalus, Pulverulina praticola, Phloeomana speirea* faqatgina shu hududda qayd etildi.

O‘zbekistonda olib borilgan bir qancha tadqiqotlarda tog‘ mintaqalarida makromitsetlar ko‘p uchrashi qayd etilgan (Iminova, 2009). Ammo tog‘li hududlarni balandlik bo‘yicha zonal taqsimlash asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar mavjud emas. Albatta, bizning natijalarimiz nisbiy bo‘lib, yog‘ingarchilik ko‘p va havo harorati iliq bo‘lgan yillarda makromitset turlarining soni yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Bobning yettinchi bo‘limida aniqlangan makromitsetlarning mavsumiy rivojlanish dinamikasi yoritib o’tilgan. Tadqiqotchilar makromitsetlarning mevali tanalari paydo bo‘lish vaqtini kuzatish asosida ularni turli fenoritmik davrlarga ajratganlar (Kalamees, 1965; Садыхов 1968; Нам 1991; Холикова 1989; Iminova, 2009). M.A. Safanov Janubiy Uralda olib borgan tadqiqotlarida bazidiomitset makromitsetlarning meva tanalari paydo bo‘lishini oltita fenoritmik davrga bo‘lgan: bahor oxiri — yoz boshida, yozda, yoz oxirida va kuzda, kuzda, yil davomida va umumiy.




**3-rasm.** Zomin milliy tabiat bog‘i hududidan 2019-2024 yillar oralig‘ida to‘plangan ma’lumotlarning yil oylari bo‘yicha to‘planish dinamikasi.

Bizning tadqiqot ishimizda Zomin milliy tabiat bog‘i hududidan 2019–2024 yillar oralig‘ida 153 turga mansub 686 namunani yilning qaysi oylarida yig‘ilganligini tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, may oyida 103 turdan jami 290 ta namuna to‘plangan bo‘lib, bu eng yuqori ko‘rsatkichdir. Shuningdek, aprel (50 turdan 160 ta namuna) va iyun (18 turdan 56 ta namuna) oylarida ham sezilarli darajada materiallar yig‘ilganligi aniqlangan (3–rasm).

Respublikaning boshqa hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham aynan aprel va may oylarida makromitsetlarning yuqori xilma-xillik ko‘rsatishini tasdiqlaydi (А.А. Петрова (1989), М. Холикова (1989), М.М. Иминова 2009). Bu esa mamlakatimizning geografik joylashuvi bilan izohlanadi, chunki yurtimizning ko‘p qismlarida iyun oyidan boshlab havo harorati oshib, namlik darajasi pasayadi va bu makromitsetlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, makromitsetlarning rivojlanish davrida harorat va namlik omillarining ahamiyati juda katta ekanligi tasdiqlanadi.


Dissertatsiyaning “**Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarining ekologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobida, barcha aniqlangan makromitset turlarini А. Е. Коваленко (1980) va Морозова (2001) tomonidan ishlab chiqilgan makromitsetlarning an’anaviy trofik tasnifi bo’yicha turli guruxlarga ajratilgan. Aniqlangan makromitsetlar biotasining trofik tuzilishi uchta asosiy oziqlanish turiga — saprotrofik, simbiotrofik va parazitar — tegishli bo‘lgan 12 ta trofik guruh asosida ifodalandi (3-jadval).

**3-jadval**

Aniqlangan makromitsetlar biotasining trofik tuzilishi.

| Oziqlanish turi | Simbiotrofik | | Saprotrofik | | | | | | | | Parazitar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Trofik guruxlar | Mr | Amf | Le | Hu | Fd | St | Co | Mm | Ex | He | Pa | Pm |
| Turlar soni | 17 | 0 | 32 | 76 | 4 | 0 | 3 | 0 | 9 | 0 | 10 | 2 |
| Maxsus nisbat, % | 11 | 0 | 20.9 | 49.6 | 2.6 | 0 | 1.9 | 0 | 5.8 | 0 | 6.5 | 1.3 |

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan makromitsetlarning 81 foizi (124 tur) saprotrof oziqlanish tipiga mansubligi aniqlandi.





**4-rasm.** Zomin milliy tabiat bog‘ida olib borilgan tadqiqot natijalari va Kalinina (Rossiya Federatsiyasining shimoli-g‘arbiy Yevropa qismi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar.

Ular orasida humus saprotroflari (76 tur, 46,6%) eng ko‘p uchrab, ekologik jihatdan ustunlikni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda Le guruhi saprotroflari (32 tur,

21 %), Ex guruhi saprotroflari (9 tur, 5,8%), Fd guruhi (4 tur, 2,6%) va Co guruhi (3 tur, 1,9%) qayd etildi. St, He va Mm guruhlariga mansub turlar aniqlanmadi.

Adabiyotlarda makromitsetlarning oziqlanish tiplari umumiy nisbatda mikorizal (50%), saprotrof (30%) va parazit hamda boshqa guruhlar (20%) sifatida qayd etilgan (Hawksworth, 2001; Smith et al., 2012). Biroq, tadqiqotimizda saprotrof turlar ustunlik qilgani aniqlandi. Bu holat hududning iqlimiy sharoitlari hamda o‘simlik qoplamining o‘ziga xosligi bilan izohlanib, jumladan, Zomin milliy tabiat bog‘i hududidagi daraxt va butalarning asosiy qismini (85% dan ortig‘ini) *Juniperus* turkumiga mansub turlar tashkil etishi, substrat xilma-xilligining pastligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Rossiya Federatsiyasining shimoli-g‘arbiy Yevropa qismida olib borilgan Kalinina (2021) tadqiqoti bilan taqqoslandi (4-rasm). U yerda 279 ta saprotrof makromitsetdan 126 tasi Le guruhiga mansub bo‘lsa, Zomin hududida aniqlangan 124 saprotrof turdan faqat 32 tasi ushbu guruhga kiradi. Bu tafovut substrat xilma-xilligining pastligi va ayrim makromitsetlarning ma’lum o‘simlik turlari bilan tor ixtisoslashgan holda rivojlanishi bilan izohlanadi. Demak, substratlarning boyligi qo‘ziqorinlar xilma-xilligini belgilovchi muhim ekologik omildir.




**5-rasm.** Zomin milliy tabiat bog‘ida olib borilgan tadqiqot natijalarini va Kalinina (Rossiya Federatsiyasining shimoli-g‘arbiy Yevropa qismi) va Ghobad va boshqalar (Eron) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi.

Trofik spektrda ikkinchi o‘rinni simbiotrof makromitsetlar egallab, 17 tur (11 %) bilan ifodalandi (3-jadval). Ushbu guruhda ektomikorizal turlar ustunlik qiladi, jumladan, terak bilan — *Geopora arenicola*, *Leccinum duriusculum*, *Helvella acetabulum*; do‘lana bilan — *Entoloma clypeatum*, *Hebeloma birrus*, *H. crustuliniforme*; qarag‘ay bilan esa — *Tricholoma terreum* bog‘liq ekani qayd etildi. Taqqoslash uchun, Kalinina (2021) Rossiyada shimoli-g’arbiy Yevropa qismida 167 ta, Ghobad-Nejhad va hammualliflari (2022) Eron hududida 172 ta ektomikorizal tur qayd etgan (5-rasm). Zomin hududida ektomikorizal turlarning

kamligi xo‘jayin o‘simliklar soni va xilma-xilligining pastligi, xususan keng bargli va ignabargli daraxtlarning cheklanganligi bilan izohlanadi.

Patogen makromitsetlar o‘rmon ekotizimlarida ekologik muvozanatni ta’minlovchi muhim guruh bo‘lib, zaiflashgan yoki kasallangan o‘simliklarning tabiiy tanlanishida ishtirok etadi. Tadqiqot davomida ular ikki guruhga ajratildi: daraxtlarda parazitlik qiluvchi 10 tur va moxlarda parazitlik qiluvchi 2 tur aniqlangan.


**4-jadval.**

Daraxtlarda parazitlik qiluvchi turlar ro‘yxati va tarqalish xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

| № | Xo‘jayin o‘simlik | Parazit (Patogen) zamburug‘ | Kasallik nomi |
|---|---|---|---|
| 1. | *Juniperus polycarpos* var. *seravschanica* | *Pyrofomes demidoffii* | Oq tana chirishi |
| | | *Fomitiporia punctata* | Tana chirishi |
| 2. | *Lonicera nummulariifolia* | *Sanghuangporus lonicerinus* | Tana chirishi |
| 3. | *Lonicera altmannii* | | |
| 4. | *Juglans regia* | *Inonotus hispidus* | Oq chirish |
| | | *Bjerkandera adusta* | Oq chirish |
| 5. | *Salix alba* | *Pholiota squarrosa* | Oq chirish |
| | | *Laetiporus sulphureus* | Oq chirish |
| 6. | *Prunus* sp. | *Phellinus igniarius* | Oq chirish |
| | | *Phellinus pomaceus* | |
| 7. | *Populus* sp. | *Bjerkandera fumosa* | Oq chirish |

Zomin milliy tabiat bog‘ida patogen zamburug‘larni har tomonlama o‘rganish jarayonida *Fomes* (Fr.) Fr. turkumining keng tarqalgan turi qayd etilmaganligi e’tiborimizni tortdi.

*Fomes fomentarius* (L.) Fr. — yog‘ochda yashovchi qo‘ziqorin bo‘lib, ko‘plab yog‘och turlarida, asosan keng bargli daraxtlarda oq chirishga sabab bo‘ladi. *F. fomentarius* daraxt poyalari va qurigan daraxtlarda mavjud bo‘lganda, ozuqa moddalari aylanishida muhim ekologik rol o‘ynaydigan saprofit sifatida harakat qiladi [42; 141–148-b.].




**3.4-rasm.** *Fomes fomentarius* ning yer yuzida tarqalish haritasi (GBIF bo‘yicha)

Ushbu tur Yer yuzining deyarli barcha mintaqalarida uchraydi (3.4-rasmga qarang). O‘zbekistonning turli hududlari, jumladan tog‘lar, bog‘lar va parklarda ushbu turning uchrashi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Biroq bizning tadqiqot hududimizda bu tur qayd etilmadi. Mazkur holatni o‘rganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosa qilindi: *Fomes* turkumiga mansub turlarning Zomin milliy tabiat bog‘i hududida uchramasligi iqlimiy omillar va relyefning balandlik zonalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Zomin milliy tabiat bog‘ida makromitsetlarning trofik tuzilmasi hudud ekologik holatini aks ettiradi: saprotroflar o‘lik organik moddalarning ko‘pligi tufayli dominant, mikorizalarning kamligi keng bargli daraxtlarning ozligi bilan, parazitlarning kamligi esa parazit aloqalarning sust rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limida Zomin milliy tabiat bog‘i hududida aniqlangan 153 makromitset turi iste’molbopligi bo‘yicha tahlil qilinib, ular iste’molbop, shartli iste’molbop, zaharli va iste’molga yaroqsiz toifalarga ajratildi.

Tadqiqot hududimizda aniqlangan 153 makromitset turidan 101 tasi iste’molga yaroqsiz turlar sifatida qayd etildi. Bu esa umumiy turlar sonining taxminan 66 % ini tashkil qiladi. Shuningdek, 26 ta tur (16,9 %) iste’molbop, 18 ta tur (11,7 %) shartli iste’molbop va 8 ta tur (5,2 %) zaharli turlar sifatida tasniflandi.





**6-rasm.** Aniqlangan makromitsetlarning ozuqaviyligi bo‘yicha taqsimlanishi.

Yer yuzida eng ko‘p iste’mol qilinadigan qo‘ziqorinlar qatoriga *Agaricus bisporus*, *Pleurotus* spp. va *Lentinula edodes* kiradi. Tadqiqot hududida 30 ga yaqin iste’molbop makromitset aniqlangan bo‘lsa-da, mahalliy aholi asosan *Morchella* spp. turlarini (“qo‘ziqorin” nomi bilan) iste’mol qilishi kuzatildi. Bu esa mintaqada qo‘ziqorinlarning oziqaviy qiymati haqida yetarli ma’lumot tarqalmaganligi va biologik xilma-xillikdan foydalanish madaniyatining sustligidan dalolat beradi. Shu bois tadqiqot doirasida xalqaro miqyosda eng ko‘p iste’mol qilinadigan muhim makromitsetlar haqida aholiga ma’lumotlar berildi.

Bobning uchinchi bo‘limida makromitsetlar meva tanalarining formalari bo‘yicha taqsimlanishi haqida ma’lumotlar yoritib berilgan. Tadqiqot davomida

aniqlangan 153 makromitset 7 morfologik meva tana tipiga ajratildi. Ulardan agarikoid (qalpoqchali) zamburug‘lar son jihatdan ustunlik qilib, hududda dominant guruh sifatida qayd etildi. Bu holat Zomin hududining agarikoid zamburug‘lar rivojlanishi uchun qulay ekologik sharoitlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning boshqa hududlarida (Xoliqova, 1989; Iminova, 2009) ham shunday natijalar qayd etilgan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotlar (masalan, Rahimlou va boshq., 2022) ham agarikoid turlar global miqyosda son jihatdan ustunligini tasdiqlaydi.




**6-rasm.** Aniqlangan makromitsetlarning turli xil meva tanalari shakllari bo‘yicha taqsimlanishi

Ushbu dalillar yer yuzida agarikoid turlar soni boshqa makromitset guruhlariga nisbatan ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi va ularning global miqyosda ekologik va taksonomik ahamiyati yuqori ekanini anglatadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi **“*Sanghuangporus lonicerinus* zamburug‘ining patogenlik darajasini baholash va uning potensial tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish”** deb nomlangan bobining birinchi bo’limida fitopatogen makromitset *Sanghuangporus lonicerinus* ni Zomin milliy tabiat bog’idagi *Lonicera* turkumi turlarini zararlash darajasi baxolangan.

Zomin milliy tabiat bog‘ida *Lonicera* turkumi vakillarining tana chirishi kasalligi bilan kasallanish darajalari va xo‘jayin o‘simliklarda kasallikni tarqalish tezligi mavjud fitopatologik metodlar yordamida tahlil qilindi. Buning uchun xo‘jayin o‘simlik turlari keng tarqalgan Sufa hududidan 1 ga, Sharshara atrofi 1 ga va Irg‘aylisoy hududidan 1 ga jami 3 ga maydon belgilab olindi. Har bir hududdan shaxmat usulida 100 tupdan o‘simliklar ro‘yxatga olinib ularda mikologik va fitopatologik kuzatuvlar olib borildi, ro‘yxatga olingan o‘simliklarning kasallanish darajasi borildi Olingan natijalar Дементьева (1984) formulasi asosida tahlil qilindi:

Zomin milliy tabiat bog‘i hududidagi *Lonicera* lardagi tana chirishi kasalligini tarqalishi Sufa, Sharshara va Irg‘aylisoy atrofida olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida aniqlandi. Buning uchun Дементьева (1984) ning quyidagi formulasidan foydalanildi:

Zomin milliy tabiat bog‘ida *Lonicera* turkumi vakillarining tana chirishi kasalligi bilan zararlanish darajasi hamda xo‘jayin o‘simliklarda kasallikning tarqalish tezligi mavjud fitopatologik metodlar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot uchun keng tarqalgan hududlardan — Sufa (1 ga), Sharshara atrofi (1 ga) va Irg‘aylisoy (1 ga) — jami 3 gektar maydon belgilab olindi. Har bir hududda shaxmat usulida 100 tup o‘simlik ro‘yxatga olinib, ularda mikologik va fitopatologik kuzatuvlar olib borildi hamda kasallanish darajasi aniqlab chiqildi. Bu jarayonda Дементьева (1984) tomonidan taklif etilgan quyidagi formula qo‘llanildi:

$$P_{e=}\frac{ESp}{S}$$

Bu yerda: $P_e$- kasallikning o‘rtacha tarqalishini foizdagi ifodasi, ESp-maydon va undagi kasallanish foizi, S-tadqiq qilingan umumiy maydon.

$$P_{e=}\frac{(1x35)+(1x32)+(1x30)}{1+1+1}=32{,}3\ \%$$

Tadqiqotlar davomida Zomin milliy tabiat bog‘ida *Lonicera* turkumiga mansub o‘simliklarda tana chirishi kasalligining tarqalishi 32.3 % ni tashkil etishi qayd etildi.

So‘nggi yillarda tana chirishi kasalligini keltirib chiqaruvchi zamburug‘ning tarqalish areali kengayib, *Lonicera* turkumiga mansub o‘simliklar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ularning butunlay yo‘qolib ketish xavfini kuchaytirib, tabiiy ekotizimlarning ekologik muvozanatiga tahdid solmoqda. Kasallikning oldini olish va tarqalishini cheklash maqsadida zararlangan o‘simliklarni o‘z vaqtida olib tashlash, muntazam monitoring o‘tkazish hamda yuqori xavfli hududlarda fitosanitar tadbirlarni qo‘llash zarur.

Bobning ikkinchi bo’limida *Sanghuangporus lonicerinus* zamburug‘ining potensial tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish natijalari keltirib o’tilgan.

Natijalar kelajakda *Sanghuangporus lonicerinus*ning tarixiy shakllangan hududlari turning tarqalishi uchun noqulay bo‘lishini ko‘rsatdi. 2021–2040 yillarga mo‘ljallangan SSP1–2.6 (past karbonatlashuv) ssenariysi sharoitida zamburug‘ning potensial tarqalish maydonlari biroz kengayib, yuqori potensialli hududlar hozirgiga nisbatan 70 km² ga ortishi prognoz qilindi. Bu davrda iqlim o‘zgarishi nisbatan yumshoq kechib, zamburug‘ barqaror sharoitlarda moslashib rivojlanishda davom etadi. Kasbiy bo‘yi hududida o‘rta va yuqori potensialli maydonlarning g‘arbga qarab kengayishi kuzatiladi. 2081–2100 yillarda esa SSP5–8.5 (eng yuqori iqlim o‘zgarishi) ssenariysi sharoitida zamburug‘ning tarqalish hududlari yanada kengayib, ayniqsa o‘rta va yuqori potensialli hududlar sezilarli darajada ortadi. Bu holat yangi iqlim sharoitlariga moslashishning yuqori darajada kechishini ko‘rsatadi.

Hozirgi tarqalish modeli natijalariga ko‘ra, parazit zamburug‘ning potensial tarqalish maydoni qariyb 333,6 ming km² ni tashkil etadi. Turning ‘qaynoq’ nuqtalari Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Kopetdag va Fudzi tog‘larining g‘arbiy qismlarida aniqlangan. Uning ekotizimlarda yil sayin kengayib borishi yangi lokalitet va subpopulyatsiyalarning shakllanishi bilan birga, yuqori moslashuvchanlik xususiyatiga egaligini ko‘rsatadi.

## XULOSALAR

“Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlari” mavzusidagi biologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Zomin milliy tabiat bog‘i makromitsetlarining taksonomik tarkibi 2 bo‘lim, 5 sinf, 11 tartib, 43 oila, 79 turkumga mansub 15 turdan iborat. Ulardan 14 tur O‘zbekiston uchun yangi turlar sifatida qayd etildi. Aniqlangan taksonomik tarkib hudud mikobiotasining yetarli darajada o‘rganilmaganini va yuqori xilma-xillikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

2. Zomin milliy tabiat bog‘i mikobiotasining oila, turkum va turlar tarkibi Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi, G‘arbiy-Tyan Shan tizmasi va Angrensoy havzasida olib borilgan tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o`zshashlik koeffisent i (0.20) Toshkent viloyatiga to`g`ri keldi. Bu holat, hududlarning iqlimiy va orografik sharoitlarining qisman o‘xshashligi bilan izohlanadi.

3. Aniqlangan 153 ta makromitset turlarining balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, turlar soni va xilma-xilligining eng yuqori ko‘rsatkichi (50 tur) 1200–1400 m balandlik oralig‘ida qayd etildi. Bu holat tadqiqot hududida mazkur balandlik mintaqasida o‘simliklar xilma-xilligining nisbatan boyligi hamda iqlim sharoitlarining qulayligi bilan izohlanadi.

4. Tadqiqot hududimizdagi makromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi o‘rganilganda, aprel va may oylarida boshqa oylar bilan solishtirganda xilma-xillikning yuqori darajada namoyon bo‘lgani aniqlangan. Ushbu holat Respublikamizning tog‘li hududlarida aynan ushbu oylarda makromitsetlar rivojlanishi uchun qulay iqlim sharoitlari namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi.

5. Aniqlangan 153 ta makromitset turi trofik strategiyasiga ko‘ra saprotrof (124 tur), mikoriza hosil qiluvchi (17 tur) va parazit-patogen (12 tur) guruhlarga ajratildi. Saprotrof turlar ustunligi makromitsetlar biotasiga xos bo‘lgan umumiy tendensiyaga mos keladi. Mikoriza hosil qiluvchi turlar sonining nisbatan kamligi hudud o‘simlik qoplamining floristik tarkibi hamda ekologik sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, hududda o‘simlik–zamburug‘ munosabatlarining nisbatan tor doirada shakllanganligini aks ettiradi.

6. Aniqlangan turlarni iste’molbopligi mezonlariga ko‘ra to‘rt guruhga ajratildi: 101 turi iste’molga yaroqsiz, 26 iste’molbop, 18 shartli iste’molbop va 8 zaharli turlar sifatida tasniflandi. Iste’molga yaroqsiz turlar sonining ustunligi global tendensiyaga mos kelishi ya’ni dunyo bo‘yicha makromitsetlar orasida iste’molga yaroqsiz turlar ulushi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

7. *Lonicera* turlarida oq chirishni qo‘zg‘atuvchi *Sanghuangporus lonicerinus* ning keng tarqalganligi aniqlanib, umumiy zararlanish darajasi 35 % ni tashkil etdi. Bu holat doimiy fitosanitar monitoring va kompleks sanitariya tadbirlarini talab qiladi, chunki modellashtirish natijalari turli SSP (1.26, 2.45, 3.70 va 5.85) ssenariylari asosida ushbu zamburug‘ning iqlim o‘zgarishlariga moslashib, kelajakda potensial tarqalish hududini kengaytirishini ko‘rsatdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

**ИНСТИТУТ БОТАНИКИ**

**ИСЛОМИДДИНОВ ЗОИРЖОН ШОРИФЖОН УГЛИ**

# МАКРОМИЦЕТЫ ЗАМИНСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДНОГО ПАРКА

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/B1240.**

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Научный руководитель:** | **Мустафаев Илёр Муродуллаевич**<br>Доктор философии по биологическим наукам, старший научный сотрудник |
| **Официальные опоненты:** | **Тургинов Орзимат Турдиматович**<br>доктор биологических наук |
| | **Хасанов Ботир Ачилович**<br>доктор биологических наук |
| **Ведущая организация:** | **Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова** |

Защита диссертации состоится 13 марта 2026 года в $14^{00}$ часов на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс: (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрированна за № 84). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул.Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан «23» февраля 2026 года.
(реестр протокола рассылки 23 от «23» февраля 2026 года)

**К.Ш. Тожибаев**
Председатель Научного Совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

**А.В. Махмудов**
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

**Х.Ф. Шомуродов**
Председатель Научного Семинара при Научном Совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

## Введение (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Изучение процессов формирования экосистем требует глубокого таксономического определения биологических видов, обитающих в конкретных регионах, а также уточнения их ареалов, что имеет важное научно-практическое значение. Для сохранения биологического разнообразия, рационального использования природных ресурсов и обеспечения экологической устойчивости необходимы идентификация организмов и их систематическое изучение.

Республика Узбекистан расположена в центральной части Центральной Азии; около 80 % её территории занимают полупустынные и пустынные зоны, тогда как остальная часть представлена высокогорными системами юго-восточных и восточных регионов. Вследствие указанных геоморфологических и климатических условий разнообразие макромицетов региона изучено в недостаточной степени по сравнению с другими территориями. В настоящее время сохраняется ряд актуальных научных вопросов, связанных с микобиотой Узбекистана. В частности, остаются неуточнёнными общее количество и таксономический состав макромицетов на территории республики, а также наличие лекарственных, эндемичных и редких видов макромицетов и недостаточность научных данных о них, что представляет собой важную проблему с точки зрения сохранения биологического разнообразия. Кроме того, поиск необходимости и практических механизмов культивирования съедобных грибов в искусственных условиях остаётся актуальной задачей как в экологическом, так и в экономическом аспектах.

Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы», а также пунктами 1, 10, 14, 56, 72, 74 и 78 данной стратегии определён ряд важных задач. Исходя из указанных задач, а также научных потребностей и существующих пробелов в изучении микобиоты Узбекистана, основной целью настоящего исследования является выявление разнообразия макромицетов Национального природного парка «Заамин», расположенного на территории Зааминского района Джизакской области, изучение их трофической структуры и сезонного развития, а также раскрытие специфических особенностей и современного состояния биоты макромицетов. При этом особое значение придаётся идентификации биоты макромицетов, распространённых в Национальном природном парке «Заамин», обоснованию их эколого-трофической структуры и созданию электронной базы данных.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также другими нормативно-правовыми актами, принятыми в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

